

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI

JAHON ADABIYOTI VA QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK KAFEDRASI

**“XAMSA, EPOS, ROMAN:
NAVOIY VA RABLE”**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari

2026-yil, 23-aprel

Toshkent “Firdavs-Shoh nashriyoti” 2026

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND
INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
ALISHER NAVA'I TASHKENT STATE UNIVERSITY
OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE
DEPARTMENT OF WORLD LITERATURE AND COMPARATIVE
LITERATURE

Proceedings of the international scientific-theoretical conference titled

**“KHAMSA, EPOS, NOVEL:
NAVOIY AND RABELAIS”**

April 23, 2026

TASHKENT
“FIRDAVS-SHOH NASHRIYOTI”
2026

XAMSA, EPOS, ROMAN: NAVOIY VA RABLE

Intizor Umarova OMON MUXTORNING "FFU" ROMANIDA MIFOLOGIK INTERMATNLILIK	536
Shukrulloxon Sherqo'ziyev O'ZBEK XALQ MAQOLLARIDA HAYOT KONSEPTI	539
Dinoraxon To'g'onova XVI – XXI ASRLARDA "HAMLET" VA "SHEKSPIR": AN'ANAVIYLIKDAN ZAMONAVIYLIKKA	542
Davron Ulug'murodov IJTIMOIY FOJIA YOKI INTERNET VA GADJETLARNING "FOYDASI"	545
Ahror Kadirov G'ARB BADIY TAFAKKURIDA "YO'QOTILGAN AVLOD" TUSHUNCHASI	549
Zilola Haydarova VASILIY SHUKSHIN VA XAYRIDIN SULTON IJODIDA ADABIY MUSHTARAKLIK	555
Gulbahor Nasridinova ROMAN JANRINING O'ZGARUVCHAN, O'SUVCHAN VA EXSPREMINTAL TABIATI: OMON MUXTOR IJODI MISOLIDA	559
Mohinur Esanova CHORI AVAZ SHE'RIYATIDA LIRIK "MEN"	565
Jumaboyeva Husniya Davronovna "ILK DEVON" NUSXALARINING MUSHTARAK VA FARQLI JHATLARI	570
Алпаизова Бүсәдәт Сабыйровна АҚЫНДАР ПОЭЗИЯСЫНДАҒЫ МЕМУАРЛАР	572
Ma'murjon Mamayusupov "VOMIQ VA AZRO" TURKUMIDAGI DOSTONLAR HAQIDA	580

**IV SHO'BA.
ADABIY KOMPARATIVISTIKA YOSH
ADABIYOTSHUNOSLAR TALQINIDA**

Utkir Hakimov NAVOIYSHUNOS BIOGRAFIYASI	587
Lobar Berdiyeva SHAVKAT RAHMON VA GARSIA LORKA SHE'RIYATIDA METAFORIKLIK	593
Bahodir Jovliyev G'AYBAROV VA MERSO OBRAZLARIDA PARADOKSAL IDILLIYAVIYLIK	604

Ma'murjon Mamayusupov,
mustaqil izlanuvchisi
(ToshDO'TAU, O'zbekiston)

“VOMIQ VA AZRO” TURKUMIDAGI DOSTONLAR HAQIDA

Annotatsiya. “Vomiq va Azro” dostoni Sharq xalqlari adabiyotidagi mashhur asarlardan hisoblanadi. Bu doston ham turli davrlarda ko'plab ijodkorlar tomonidan yozilgan bo'lib, bunday asarlar syujet va g'oya jihatidan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan va ular Sharq adabiyoti rivojida chuqur iz qoldirgan.

Ushbu maqolada “Vomiq va Azro” dostonining kelib chiqish manbalari, og'zaki va yozma shakllanish bosqichlari, dostonning variantlari, umuman, asarning genezisi hamda uning turli adabiy muhitlardagi variantlari haqida ayrim mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: “Vomiq va Azro”, doston, genezis, yunon adabiyoti, arab adabiyoti, fors adabiyoti, turk adabiyoti, o'zbek adabiyoti, masnaviy, ishqiy doston.

Abstract. "Vomiq and Azro" is one of the famous epic works in the literature of Eastern peoples. This epic has been written by many authors across different periods, and such works possess unique features in terms of plot and theme, leaving a profound impact on the development of Eastern literature.

This article discusses the sources of the epic "Vomiq and Azro," its stages of oral and written formation, the various versions of the epic, as well as general aspects of its genesis and its different renditions in various literary traditions.

Keywords: "Vomiq and Azro," epic, genesis, Greek literature, Arab literature, Persian literature, Turkish literature, Uzbek literature, masnavi, romantic epic.

Sharq mumtoz adabiyotida ishqiy dostonlar alohida o'ringa ega bo'lib, ularda sof insoniy tuyg'ular, ruhiy kechinmalar va axloqiy g'oyalar yuksak badiiy shaklda o'z ifodasini topgan. “Vomiq va Azro” dostoni ana shunday asarlar qatoriga kirib, o'zining ko'p madaniyatli shakllanish jarayoni va turli adabiy muhitlarda qayta ishlanishi bilan ajralib turadi. Mazkur doston ham bir xalq yoki bir adabiy muhit mahsuli bo'lmay, u ba'zi tadqiqotlarda keltirilishicha, yunon adabiyoti orqali arab, fors va turkiy adabiyotga kirib kelgan ko'p qatlamli badiiy hodisa hisoblanadi.

Adabiyotshunoslikda asar genezisini o'rganish uning mazmun-mohiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan, “Vomiq va Azro” dostoni

turli davr va hududlarda qanday shakllanganini, qaysi manbalardan oziqlanganini hamda qanday badiiy o'zgarishlarga uchraganini tahlil qilish muhimdir.

Ta'kidlanganidek, "Vomiq va Azro" dostoni Sharq va G'arb adabiy an'analari kesishgan nuqtada shakllangan, ko'p qatlamli genezisga ega bo'lgan ishqiy-sarguzasht asarlardan biridir. Ushbu doston turli davr va hududlarda qayta ishlanib, har bir adabiy muhitda o'ziga xos badiiy talqin kasb etgan.

Dostonning eng qadimgi ildizlari haqida so'z yuritilganda, ko'plab tadqiqotchilar uning yunon (grek) adabiyoti bilan bog'liqligini ta'kidlaydilar. Muhammad Shafiy olib borgan izlanishlarga ko'ra, asardagi qahramonlar nomlari va voqealar makoni yunon tarixiy-madaniy muhitiga yaqin: "... hikoyadagi shaxs nomlarining aksariyati yunoncha bo'lib, bu uning qadimiy yunon manbalariga borib taqalishini ko'rsatadi"²⁴³. Ayrim ilmiy qarashlarga ko'ra, ushbu syujet dastlab Sharq hududlarida shakllanib, keyinchalik yunonlar tomonidan o'zlashtirilgan, so'ng yana Sharqqa qayta kirib kelgan. Bu jarayon qadimgi sivilizatsiyalar o'rtasidagi madaniy almashinuvlar bilan izohlanadi.

Arab adabiyotida esa "Vomiq va Azro" ko'proq og'zaki rivoyatlar va tarjima an'analari orqali yashab kelgan. Ba'zi manbalarda asarning dastlab arab tilida yozilgani haqida taxminlar mavjud bo'lsa-da, aniq yozma namunalar saqlanmagan. Shunga qaramay, hikoyaning ayrim unsurlari arab adabiy muhitida qayta ishlanib, ishqiy rivoyatlar tizimiga singib ketgan. Tadqiqotchilar bu bosqichni asarning Sharqiy adabiy makon bo'ylab tarqalish davri sifatida baholaydilar.

Fors adabiyotida "Vomiq va Azro" syujeti ancha aniq va muayyan tugal shaklga kelgan. Bu yerda, ayniqsa, shoir Unsuriy nomi bilan bog'liq variant muhim hisoblanadi. U og'zaki rivoyatlar asosida ushbu hikoyani masnaviy shaklida qayta ishlagan. Biroq uning asari to'liq holda bizgacha yetib kelmagan. Shu sababli uning manbalari va syujetni qay darajada o'zgartirgani haqida to'liq ma'lumotlar yo'q: "Unsuriy o'z hikoyasini yozishda qaysi manbadan foydalangani noma'lumligicha qolmoqda"²⁴⁴. Shunga qaramay, aynan fors adabiyoti ushbu dostonning yozma shaklga o'tishida hal qiluvchi bosqich bo'lib xizmat qilgan.

Turk adabiyotida "Vomiq va Azro" XV asrdan boshlab keng tarqala boshlaydi. Bu davrda Hamzaviy, Jamoliy, Behishti, Ahmad Sinon Chalabiy kabi shoirlar ham shu nomda asarlar yaratganlari aytiladi, biroq ularning aksariyati bizgacha yetib kelmagan. Hozirgi kunda esa Manisali Jome'iy, Kurkchuzoda Usmon Ramziy va ayniqsa Lome'iy asarlari muhim manba hisoblanadi. Lome'iy tomonidan yaratilgan "Vomiq va Azro" masnaviysi turk adabiyotidagi eng mukammal variant sifatida

²⁴³ <https://islamansiklopedisi.org.tr/vamik-ve-azra>

²⁴⁴ <https://islamansiklopedisi.org.tr/vamik-ve-azra>

e'tirof etiladi. U Unsuriy asariga tayangan holda asarni qayta ishlab, uni turk urf-odatlar va ijtimoiy muhitiga moslashtirgan: "Lome'iy hikoyani saqlagan holda, uni milliy an'analar asosida qayta yaratgan"²⁴⁵.

"Vomiq va Azro" dostoni syujeti juda uzoq davrlarga borib taqaladi. Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro" tazkirasida keltirilishicha, Amir Abdullo ibn Tohir Nishopurda ekanida, notanish bir odam kelib, unga bir kitob hadya qilgan. Amir undan: "Bu qanday kitob?" – deb so'raganida, u "bu "Vomiq bilan Azro" haqidagi rivoyatdir. Bu ajoyib asarni olimlar shoh No'shiravonga atab yozishgan", – deb javob bergan. Shunda Amir: "Biz faqat Qur'onni taniyamiz, Qur'on va payg'ambarlar haqidagi rivoyatlardan boshqa hech qanday kitob o'qimaymiz. Sehr-jodu bilan to'lgan bu kitobni biz rad etamiz", – degan va o'sha kitobni suvga tashlashga buyurgan... Dastlabki yozilgan "Vomiq va Azro"ning taqdiri shunday tugagan²⁴⁶.

Mazkur asarning yozma adabiyotdagi ilk namunalari haqida turli qarashlar mavjud. "Vomiq va Azro" ishq-muhabbat mavzuyidagi yunon eposlaridan bo'lib, uni IX asrda yashab, ijod etgan Sahl ibn Horun arab tiliga tarjima qilgan. Keyinchalik bu asarning tarjimasi bilan Beruniy, Fasihi Jurjoniylar ham shug'ullangan²⁴⁷.

Ta'kidlanganidek, Unsuriy tomonidan yozilgan "Vomiq va Azro"ning ayrim parchalarigina saqlanib qolgan. Bu parchalar 316 baytdan iborat bo'lib, asarning o'rta qismi hisoblanadi.

XVIII asrda Zohiri Kirmoniy "Vomiq va Azro" dostonining nasriy variantlarini yaratgan bo'lib, ular o'sha davr fors adabiyotida o'ziga xos g'oyaviy va badiiy xususiyatlarga ega bo'lgan.

Tadqiqotlarda keltirilishicha, mazkur dostonning 13 ta varianti mavjud bo'lgan²⁴⁸.

XIX asrda esa shoir Mag'furxo'ja Sa'diy Hasan Xorazmiy dostonni o'zbek tiliga tarjima qilgan, bu variant 1840, 1895, 1902 va 1911-yillarda qayta ko'chirilgan. XX asr boshida esa shoir Ahmad Tabibiy asosida she'riy variant yaratilgan, bu esa o'zbek yozma adabiyotida saqlangan yagona to'liq nusxa hisoblanadi.

Shunday qilib, "Vomiq va Azro" dostoni og'zaki xalq ijodidan boshlab, turli tillarda va turli avtorlar tomonidan qayta yozilgan, shakllangan va rivojlangan. Asar tarixiy rivojlanishi davomida syujet va obrazlar turli xalqlarning adabiy muhitida

²⁴⁵ <https://islamansiklopedisi.org.tr/vamik-ve-azra>

²⁴⁶ Ганихўжаев Ф. Аҳмад Табибий. – Тошкент: Фан, 1978. – Б. 56.

²⁴⁷ Валихўжаев Б. Ўзбек эник поэзияси тарихидан. – Тошкент: Фан, 1974. – Б. 82.

²⁴⁸ O'sha manba va sahifa.

moslashgan, biroq asosiy ishqiy mavzu va markaziy obrazlar doimiy ravishda saqlangan.

O'zbek adabiyotida "Vomiy va Azro" alohida mustaqil doston sifatida keng tarqalmagan bo'lsa-da, uning syujeti va badiiy ruhiyati mumtoz ishqiy dostonlar an'anasi bilan uzviy bog'liqdir. Xususan, "Layli va Majnun", "Yusuf va Zulayho" kabi asarlar bilan umumiy motivlar – ilohiy ishq, sadoqat, hijron va visol g'oyalari orqali yaqinlik kuzatiladi. Shu bois, ushbu doston bevosita emas, balki umumiy adabiy an'ana orqali o'zbek adabiyotiga ta'sir ko'rsatgan deb baholash mumkin.

E'tiborlisi, "Vomiy va Azro" dostoni turkiy, xususan, o'zbek ijodkorlari tomonidan ham nasriy va nazmiy yo'lda ijod etilgan. Bu haqda adabiyotshunos olimlar B.Valixojayev va F.G'anixojayevlar tomonidan ma'lumotlar berilgan²⁴⁹.

XVIII asr fors adabiyoti namoyandaligidan Zohir Kirmoniyning "Vomiy va Azro" dostoni o'zining g'oyaviy va badiiy xususiyatlari bilan alohida o'rin tutadi. Muallif asar voqealarini tasvirlashda xalq og'zaki ijodidagi afsonalaridan mohirlik bilan foydalangan. Shoir afsonani tarix bilan, ishqiy sarguzashtlarni davrning ijtimoiy masalalari bilan bog'lab ko'rsatgan. Doston fors tilida nasr yo'lida yozilgan bo'lib, u 1880, 1853 va 1901-yillarda kotiblar tomonidan qayta ko'chirilgan.

Adabiyotshunos F.G'anixojayevning ta'kidlashicha, "646 betdan iborat bu qo'lyozma keyinchalik turkiy tilga ham tarjima qilingan. XIX asrdagi Xorazm adabiy hayotida ko'zga tashlanadigan xarakterli xususiyatlaridan biri, original asarlar yaratish bilan bir qatorda fors-tojik tilidagi ko'pgina badiiy va tarixiy asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilish edi. Ana shu davr (hijriy 1250, milodiy 1834-35-yil)da shoir Mag'furxo'ja Sa'diy Hasan Xorazmiy Zohiri Kirmoniyning "Vomiy va Azro" dostonini o'zbek tiliga tarjima qiladi. Dostonning o'zbekcha tarjimasi ancha muvaffaqiyatli chiqqan, tili sodda va obrazlidir. Shuning uchun ham bu kitob qo'ldan-qo'lga o'tib, 1840, 1895, 1902 va 1911-yillarda qayta ko'chirilgan"²⁵⁰. Mag'furxo'ja Xorazmiyning asari nasriy yo'lda yozilgan. Bu asar hozirda O'zFA SHI fondida 6911, 6918 raqamlari ostida saqlanadi. Mag'furxo'ja Xorazmiy asari "Bismillohir-Rahmonir-Rahim"dan so'ng, bunday boshlanadi: *"Hamdi behad va sanoyi beaded ul Xoliqi Ahad va soniyi Samadg'a maxsusdurkim, hikmati komila va qudrati bolig'asi birla safi bo safo va so'fiyi bo vafo, ya'ni xalifayi ulvo hazrati Odam ala nabiyyina va alayhissalomni masnadi jalolat birla xilofatda mutamakkin va barqaror qilib, sarafrozliq manshurin "Inniy ja'ilun fil arzi xalifa" karimasi birla oning sha'nida imlo qildi va maloil a'lo musabbihlari sardaftarin naxvat va istikbor jarimasidin "Faxruj min haa fa innaka rojimun" demak birla bavodiyi*

²⁴⁹ Valixojayev B. Ўзбек эпик поэзияси тарихидан. – Тошкент: Фан, 1974; Ганихўжаев Ф. Аҳмад Табибий. – Тошкент: Фан, 1978.

²⁵⁰ Ганихўжаев Ф. Аҳмад Табибий. – Тошкент: Фан, 1978. – Б. 56.

idbor va sohati bavorirda sargardon tashlab, bashar ma'sharig'a "Valaqod karramno bani adama" mujdasi birla bashorat yetkurdi.

Bayt: Ey nechukkim, durni mahfiy asrading ummon aro,

*Gavhari zotingni aylading inson aro*²⁵¹.

Adabiyotshunos olim B.Valixo'jayevning keltirishicha, Mag'furxo'ja asarining to'liq bo'lmagan yana bir nusxasi Samarqand FB fondida 50651 raqami ostida saqlanadi²⁵². Garchi tarjima muvaffaqiyatli chiqqan deyilsa-da, bu asar hali to'liq matniy va badiiy jihatdan tadqiq etilganicha yo'q.

XX asr boshlariga kelib, aniqrog'i 1910-yilda Zohiri Kirmoniy va Mag'furxo'ja Xorazmiylarning asari ta'sirida uning boshqa bir varianti Ahmad Tabibiy tomonidan she'riy yo'lda ijod etildi. Bu asar shu yili shoir Chokar tomonidan ikki nusxada ko'chirilib, ular hozirda O'zFA ShI fondida 1243, 2057 raqamlari bilan saqlanib kelinmoqda. Yuqorida ta'kidlanganidek, bu nomdagi asarlar bir-biridan farq qiladi. Ahmad Tabibiyning "Vomiy va Azro" dostonini o'zbek yozma adabiyotida yozilgan shu nomdagi boshqa asarlardan tubdan farq qiladi. Tabibiy asari "basmala"dan so'ng quyidagi misralar bilan boshlanadi:

Sanov-u hamd ul jon ofaring'a,

Ki zoti keldi shoyon ofaring'a.

Iki harf ila bo'lg'och mukta payro,

Qilurg'a hikmat osorin huvaydo,

To'quz aflokni chekdi rafe' ul,

Bori yer yuzini yoydi vase' ul.

Yaratdi nujum-u sayyor-u savobit.

Qilib Xoliqlig'in har ishda sobit.

Samolar borini tutdi muallaq,

Tamomi yerni tashkilin mutabbaq.

Anosir xolini chun etdi bunyod,

Hamasin bir-biriga qildi izdod.

Birini sard-u birini garm qildi,

Birin qottig', birisin narm qildi.

E'tiborlisi, Ahmad Tabibiyning "Vomiy va Azro" dostoni adabiyotshunos F.G'anixo'jayev tomonidan qisqartirishlar bilan nashr ettirilgan. Tabibiy asari ham "hamd", "na't" kabi an'anaviy kirish qismiga ega. Asarning kirish qismida oyat va hadislardan keng istifoda etilganidan bunday parchalarni mafkura talabiga ko'ra nashr ettirish imkoni bo'lmagan. Bugungi kunda "Vomiy va Azro" dostonlarining

²⁵¹ O'zFA ShI fondidagi 6911 raqamli qo'lyozma, 1^b-sahifa.

²⁵² Валихужаев Б. Ўзбек эпик поэзияси тарихидан. – Тошкент: Фан, 1974. – Б. 83.

turkiy tildagi variantlari qiyosiy-matniy tadqiqini amalga oshirish dolzarb vazifalardan bo'lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, "Vomiq va Azro" dostoni o'zining kelib chiqishi va rivojlanish bosqichlari jihatidan jahon adabiyotidagi noyob ko'p qatlamli asarlardandir. Uning genezisi birgina adabiyot doirasida emas, balki turli madaniyat va xalqlarning uzoq tarixiy aloqalari natijasida shakllanganini ko'rsatadi. Yunon adabiyotiga borib taqaluvchi qadimiy ildizlar, arab muhitidagi og'zaki shakllar, fors adabiyotida yozma tus olishi va turk adabiyotida mukammal badiiy darajaga yetishi – bularning barchasi asarning murakkab evolyutsiyasini namoyon etadi.

Umuman olganda, "Vomiq va Azro" dostoni turli xalqlar o'rtasidagi adabiy va madaniy aloqalarning yorqin namunasi bo'lib, u adabiyotshunoslikda muhim tadqiqot obyekti hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. O'zFA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondidagi 6911, 6918, 1243, 2057 raqamli qo'lyozmalar.
2. Валихўжаев Б. Ўзбек эпик поэзияси тарихидан. – Тошкент: Фан, 1974.
3. Г'анихўжаев Ф. Танланган асарлар. – Тошкент: Бадий адабиёт, 1968.
4. Г'анихўжаев Ф. Ахмад Табибий (haёти ва ижоди). – Тошкент: Фан, 1978.
5. <https://islamansiklopedisi.org.tr/vamik-ve-azra>